



**SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING BOLALAR HAYOTIDAGI  
AHAMIYATI**

**Tojikarimova Moxiraxon Anvarjon qizi**

*Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lif  
yo'nalishi 2-kurs talabasi  
[moxiratojikarimova660@gmail.com](mailto:moxiratojikarimova660@gmail.com)*

**Usmonaliyeva Mohichehra Ilhomjon qizi**

*Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lif  
yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sahnalashtirish orqali bolalarda iroda, intizom va o'z xatti harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobjiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi. Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jarayoniga kirib boradilar, voqe va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobjiy fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

**Kalit so'zlar:** Sahnalashtirish faoliyati, personaj, didaktik, rol, badiiy asar, rejissyor.

**KIRISH:**

Sahnalashtirish bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan ro'llarga bo'lib ijro etiladi. Sahnalashtirish orqali bolalar dunyoni o'zgacha ruhda taniy boshlaydilar. Qahramonlarning ifodali nutqlari va shaxsiy fikrlari orqali bolalarning so'z boyligi ortib boradi. Bolalarning ijro etayotgan ro'li ayniqsa boshqa qahramonlar (personaj)lar bilan bo'ladigan muloqot uning aniq va tushunarli so'zlashga undaydi.

**ASOSIY QISM:**

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlari, istaklarini hisobga olish talab qilinadi. Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo'lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko'p bo'lishi.
5. Ifodali o'qishga mos bo'lishi.



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 1



6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog‘langan bo‘lmog‘i kerak.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yoqtirishadi. Misol uchun: “Bo‘g‘irsoq”, “Uch cho‘chqacha”, “Echki bolalari”, “Zumrad va Qimmat”, “Sholg‘om” va boshqalar. Bolalar badiiy asarlarni eslab qolishlari uchun o‘qib berish, sahnada ko‘rsatish, rasmlardan va didaktik o‘ynlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Sahnalashtirish faoliyati qiziqarli o‘tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlarni tayyorlab undan to‘g‘ri foydalanish kerak. Kattalar rejissyor rolini amalga oshirish davomida, bolalarning xatti harakatlarini, istaklarini hisobga olib borishadi. Rollarni yaxshi ijro etgan bolalarni rag‘batlantirib, keyingi sahnalashtirish qaysi asardan ijro etilishi aniqlab olinadi. Har bir insonning bolaligi rolli o‘yinlar asosida o‘tadi, u bolada kattalarning hayotiy qonun-qoidalarni anglashni o‘rgatadi. Har bir bola o‘zi bilganicha o‘ynaydi, lekin bu o‘yinlar asosan kattalar, sevimli qahramonlardan o‘rganib yoki ularga taqlid qilgan holda amalga oshiriladi. Bolalar o‘yinlariga improvizatsiya qilingan teatrlashtirilgan tomosha sifatida qarash mumkin. Bolaga o‘zini rejissor, aktyor, musiqachi, dekorator holida ko‘rish imkonini beriladi. Dekoratsiya va kostumlarni tayyorlash bolada ijodiy va texnik faoliyatni rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Tomoshani tayyorlash jarayonida ular chizish, yasash, tikish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, oldilarida amalga oshirishlari lozim bo‘lgan vazifalarga nisbatan istak, hoxish tuyg‘ulari yanada rivojlanadi va ular bundan katta zavq oladilar. Maktabgacha ta’lim muassasalarida teatrlashtirilgan faoliyatning barcha yo‘nalishlariga katta e’tibor berish lozim va shart, chunki ular,

- - jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish modelini yaratishni;
- -milliy va ma’naviy qadriyatlarni singdirib borgan holda bolaning madaniyatini oshirishni;
- -bolalar adabiyoti, musiqa, tasviriysan’at, o‘zini tutish odobi, milliy an’analar va qadriyatlarni yaqindan tanishtirish va bu boradagi qiziqishini muntazam oshirib borishni;
- -to‘g‘rifiklash, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni o‘yinlar orqali bolalar ongiga singdirib borishga yordam beradi.

### XULOSA:

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sahnalashtirilgan faoliyat bolalarning ichki kechinmalari, munosabatlari, emotsiyal faoliyatining rivojlanishiga ya’ni asar qahramonlariga munosabat bildirish, ularning holatiga kirishga harakat qilish kabi



holatlar bilan birga boladagi ijodiy faollikni o‘yin, fantaziya, to‘qib chiqarish orqali kengaytiradilar. Sahnalashtirilgan faoliyat bilan bolalar nutqini rivojlantirish uzviy bog‘liq bo‘lib, qahramonlarning so‘zlari, bola nutqi bilan uyg‘unlashib uning so‘z boyligini orttiradi, nutqining tovush madaniyat mukammalashadi. Sahnalashtirilgan mashg‘ulotlar o‘z ichiga ertaklardan lavhalar qo‘yish, rasmga qarab rolli suhbatlar tuzish, hayotiy mavzularga oid mustaqil improvizatsiya (o‘xshatish) qilish (kulguli voqealar, qiziq hodisalar va hokazo); qo‘g‘irchoq tomoshalarini ko‘rish va uni muhokama qilish, dramatizatsiyalashgan o‘yinlar, rolni ijro etish ifodaliligini rivojlantiruvchi mashqlar (verbal va noverbal); bolalarni xissiy rivojlantiruvchi mashqlarni qamrab oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rahima Movlonova va boshqalar “O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot” Toshkent-“Ilm Ziyo”-2010
2. Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi, & Abdullajonov Davronjon Shokirjon o‘g‘li. (2023). BOSHLANG‘ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING MAQSAD VA VAZIFASI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 658–660. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.671>
3. Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi, & Valiyeva Nargiza. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA’LIM MUASSASALARINING O’ZARO HAMKORLIGI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 637–639. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.665>
4. Tojikarimova Moxira. (2023). BOLALARING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(1), 20–25. Retrieved from <http://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/5>
5. Tojikarimova, M. A. qizi. (2023). BOSHLANG‘ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 824–828. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5106>
6. Badiiy o‘qishning maqsad va vazifalari. (2024). YANGI O’ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 54-59. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoit/article/view/60>
7. BADIY O‘QISH VA DRAMA FANI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR. (2024). YANGI O’ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION



## ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES International scientific journal

Volume: 2 Issue: 1



TADQIQOTLAR, 2(1), 49-53.

<https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/59>

8. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 661-663.
9. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA’LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
10. JS Ikromjonovna, X Muazzamxon “O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI“ Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 806-81
11. Tursunboy o‘g‘li, N. J., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). O ‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO ‘LISH UCHUN UZOQ YO ‘LI VA XITOY TAJRIBASI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 43-47.
12. Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 333-338.
13. Maxliyoxon, O. (2024). BOSHLANG ‘ICH TA’LIM O ‘QUVCHILARIDA BADIY O ‘QISH TEKNIKASINI RIVOJLANTIRISH. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 39-45.
14. Maxliyoxon, O., & Kumush, E. (2024). DRAMA ORQALI MA’NAVIYAT SARCHASHMASIDAN XABARDOR BO’LISH. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 33-38.
15. Maxliyoxon, O., & Xonzodabegim, I. (2024). BOSHLANG ‘ICH TA ‘LIMDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING O ‘RNI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 64-68.
16. Maxliyoxon, O., & Shohsanam, R. (2024). BOSHLANG ‘ICH TA’LIM O ‘QUVCHILARINING FIKRLASH SALOHIYATINI OSHIRISHDA ERTAKLARNING AHAMIYATI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 58-63.
17. Maxliyoxon, O., & Mohinaxon, E. (2024). BADIY O ‘QISH FANINI BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIGA O ‘QITISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA YECHIMLAR. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 52-57.
18. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, O. (2024). BADIY O ‘QISH VA DRAMA O ‘QUV KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 27-32.
19. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA’LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O ‘RNI. YANGI O’ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 113-118.



**ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES**  
**International scientific journal**

**Volume: 2 Issue: 1**



20. Maxliyoxon, O., & Marifatxon, A. (2024). BADIY O 'QISH VA DRAMA FANINING BOSHLANG 'ICH TA'LIMDAGI O 'RNI. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 104-108.

